


partial information, so they should be informed in newspapers and magazines, on television, on social networks about what products are among environmentally friendly products, where to buy them. it is necessary to give reliable information that it is possible to get it. If we want to achieve green eco-

nomical growth and sustainable development in nationalism, we must do it. Our country has sufficient strength, reserves, and knowledge in all aspects, it is enough if we use them wisely and work for the well-being of the society in New Uzbekistan.

References:

1. Sh. M. Mirziyoyev. (2019). President. B. S. M. Mirziyoyev, Action plan (Tashkent). Uzbekistan: On the measures to increase the effectiveness of the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan to transition to a "Green economy" by 2030.
2. Sh. M. Mirziyoyev. (2022). President. In S. M. Mirziyoyev, Action plan (Tashkent). Uzbekistan: State program on implementation of the new Uzbekistan development strategy for the years 2022-2026 in the "A year of human attention and quality education."
3. World bank, (2022). World bank. Data collection: <https://ourworldindata.org/>
4. Created by the author. (2021). Data collection. Получено из This table was created by the author by using data which was given Our World in Data based on the Global Carbon Project (2022).
5. German National Action Plan on Energy Efficiency (NAPE). (3 December 2014). Organization. Germany: Action plan.
6. Germany. (2014). State. In Germany, Action plan. Germany: Action Programme on Climate 2020, APC.
7. Created by the author. (2021). Data collection. Получено из Source: Data compiled from multiple sources by World Bank, Our World in Data based on the Global Carbon Project.
8. Created by the author. (2022, april). Data collection. Retrieved from www.macrotrends.net, <https://ourworldindata.org/>, <http://data.worldbank.org/>
9. Data compiled from multiple sources by World Bank, O. W. (2021). Retrieved from <https://ourworldindata.org/>
10. Data compiled from multiple sources by World Bank, Our World in Data based on the Global Carbon Project. (2019). Data collection. Retrieved from Data compiled from multiple sources by World Bank, Our World in Data based on the Global Carbon Project: <https://ourworldindata.org/about>



 doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a3

O'ZBEKISTONDA TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Astanakulov Olim Tashtemirovich -
i.f.d., prof., O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi kafedrasini mudiri
Qurbanaliyeva Nazokat Umarali qizi -
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tashqi savdo tushunchasiga xorijiy iqtisodchi olimlar nazariyalariga tayanib, iqtisodiy ta'rif berilib, uning tarkibida tovarlar eksportining ahamiyati keng yoritib berilgan. O'zbekiston Respublikasining 2010-2022-yillarda tovarlar eksportini keng qamrovli iqtisodiy toifalarga ajratib, ular bo'yicha alohida toifalar statistik tahlil qilingan hamda keng qamrovli iqtisodiy toifalarga ajratilgan eksport tovarlari hisobini yuritilishi bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilgan. Tovarlarni eksportini rivojlanishi uchun ta'sir qiluvchi omillar statistik baholanib, yaratilayotgan me'yoriy-huquqiy sharoitlar ko'rsatib berilgan. Tovar eksportini toifalar bo'yicha turlarga ajratish jahon standartlari talabi asosida amalga oshirilib, ushbu turlarga ajratilgan tovarlarni tahlil qilinayotgan yillar davomida o'sish dinamikasi va toifalar bo'yicha tarkibiy o'zgarishlari qiyosiy tahlil qilinib, erishilgan tahlil natijalarining iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ta'siri ko'rsatib berilgan.

Калит сўзлар: tashqi savdo statistikasi, tovarlar eksporti, tovarlar importi, sanoat, asosiy vositalar, Xalqaro Valyuta Fondi, to'lov balansi, tashqi savdo dinamikasi.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ УЗБЕКИСТАНА

Астанакулов Олим Таштемирович -
д.э.н., проф., Международная исламская академия Узбекистана
Заведующий кафедрой «Исламская экономика и финансы»
Курбаналиева Назолат Умарали кизи -
Магистрант, Международная исламская академия Узбекистана

Аннотация. В данной статье дается экономическое определение понятия внешней торговли, опирающееся на теории зарубежных ученых экономистов, широко освещается значение экспорта товаров. Проведен статистический анализ экспорта товаров Республики Узбекистан в 2010-2022 годах по отдельным экономическим категориям и изучен опыт зарубежных государств по ведению учета экспортных товаров, отнесенных к комплексным экономическим категориям. Проведена оценка факторов, влияющих на развитие экспорта товаров, отражена создаваемые нормативно-правовые условия. Разделение товарного экспорта по категориям на виды осуществляется на основе требований мировых стандартов, проводится сравнительный анализ динамики роста и структурных изменений товаров, отнесенных к этим видам, по категориям за анализируемые годы с указанием влияния достигнутых результатов на развитие отраслей экономики.

Ключевые слова: статистика внешней торговли, экспорт товаров, импорт товаров, основные средства, Международный Валютный Фонд, платежный баланс, динамика внешней торговли.

Olim Astanakulov Tashtemirovich -

*DSc., Professor, International Islamic Academy of Uzbekistan
Head of "Islamic Economics and Finance" Department*

Nazokat Kurbanalieva Umarali kizi -

Master student, International Islamic Academy of Uzbekistan

Annotation. This article gives an economic definition of the concept of foreign trade, based on the theory of foreign scientists and economists, which widely highlights the importance of exporting goods. A statistical analysis of the export of goods of the Republic of Uzbekistan in 2010-2022 was carried out for certain economic categories and the experience of foreign countries in keeping records of export goods classified as complex economic categories was studied. Factors influencing the development of exports of goods are statistical assessment, an indication of the created regulatory and legal conditions. The division of commodity exports into categories into types is carried out on the basis of the requirements of world standards, a comparative analysis of the dynamics of growth and structural changes in goods classified by these types is carried out by categories for the analyzed years, indicating the impact of the achieved results of the analysis on the development of economic sectors.

Key words: statistics of foreign trade, export of goods, import of goods, fixed assets, International Monetary Fund, balance of payments, dynamics of foreign trade.

Kirish. Jahonda xalqaro integratsiyalashuvning jadallashuvi natijasida tashqi savdo ma'lumotlariga talabning ortishi mamlakatlar o'rtasida axborot almashinuvida yagona standartlar joriy qilinishiga sabab bo'ldi. Bu orqali statistika tizimining xalqaro darajada rivojlanishi, mamlakatlar o'rtasida shaffof va tezkor statistik ma'lumotlarni erkin almashinuviga va foydalanuvchilarga keng imkoniyatlar yaratilishiga erishilmoqda. Yana bir e'tiborli jihati, Prezidentimizning quyidagi fikrlari statistika tizimini rivojlantirish dolzarb ekanligini ko'rsatib beradi: "Endi har bir topshiriqning ijro etilgani qog'ozga qarab emas, erishilgan pirovard natijaga qarab baholanadi. Shu bois, barcha darajadagi ijro organlarida intizomni kuchaytirish, belgilangan vazifa va topshiriqlar natijadorligini tanqidiy tahlil qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish zarur" [1].

O'zbekistonda statistika tizimini rivojlantirishga berilayotgan juda katta e'tibor sifatida O'zbekistonda Jahon banki tomonidan moliyalashtiriladigan loyiha statistika tizimida statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish yo'nalishidagi inson va texnologik salohiyatlarini rivojlantirishni jadallashtirishini aytishimiz mumkin. Tegishli statistik ma'lumotlar mavjudligi fuqarolar va biznes vakillari uchun turli xil davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshiradi hamda O'zbekistonga ko'proq xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashadi. Jahon bankining texnik ko'magi bilan Davlat statistika qo'mitasi 2020-2025-yillarga mo'ljallangan statistikaning rivojlantirishning Milliy strategiyasini ishlab chiqqanligini e'tirof etdi [2]. Ushbu strategiyada statistika tizimini rivojlantirish bilan bir qatorda uning tarkibiy qismi bo'lgan tashqi savdo statistikasini ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Tashqi savdo statistikasi Davlat statistika qo'mitasining tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi tomonidan tuzilishi va metodologik tavsiyalar asosiy manbasi Xalqaro valyuta fondining to'lov balansi va xalqaro investisiya posit-

siyalari bo'yicha ko'rsatmalari (TBQ-6) va BMT, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon Savdo tashkiloti, Yevrostat va boshqalar tomonidan tayyorlangan xalqaro savdo xizmatlari statistikasining 2010-yildagi ko'rsatmalari [3] ekanligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan, mamlakatimizda statistika tizimini rivojlantirish uchun xalqaro darajada ham e'tibor qaratilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga, ushbu strategiyani amalga oshirish uchun yo'l xaritasini tuzib chiqish va qo'yilgan vazifalarni qat'iy bajarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli qarori qabul qilindi [4]. Unda statistika organlarini talab yuqori bo'lgan, sifatli va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirishga, statistika ma'lumotlarining shaffofligi va oshkoraligini oshirishga qaratilgan professional mustaqil xizmatga aylantirish, statistika sohasida yagona siyosatni amalga oshirishga qaratilgan vakolat va majburiyatlarni mustahkamlash orqali O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi Statistika kengashi-ning to'liq faoliyatini ta'minlash, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiya vositalaridan keng foydalanigan holda statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish, nashr etish va saqlash bo'yicha yaxlit tizimni tashkil etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab berilganligini ko'rishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon iqtisodchi olimlari tomonidan mamlakat eksport salohiyatini o'sishi mamlakatlar va mintaqalar rivojlanishi bilan bog'laydilar. Tarixiy rivojlanish jarayonlari mobaynida tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ta'siri merkantilistik g'oyalarga, A.Smitning mutlaq afzallik nazariyasiga, D.Rikardo, T. Xeksher-Olin-Samuelsanning[5] nisbiy afzalliklariga, eksport bazasi nazariyalari bugungi kunda ham bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

"Xalqaro savdo - dunyodagi barcha mamla-

katlarining tashqi savdosidan hosil bo'lgan xalqaro tovar-pul munosabatlari tizimi. Xalqaro savdo XVI-XVIII asrlarda jahon bozori paydo bo'lishi davrida vujudga keldi. Uning rivojlanishi zamonaviy davrda jahon iqtisodiyoti rivojlanishining muhim omillari-dan biridir" [6].

Iqtisodchi olimlar xomashyo va tayyor mahsulotlar eksporti bo'yicha turli ilmiy tadqiqotlar o'tkazganlar. Ular orasida Obolenskiy V.P. Rossiya misolida birlamchi bo'lmagan eksportini ko'paytirish imkoniyati muhokama qilib, sanoatning ishlab chiqarish sohasida asosiy vositalarni zamonaviylariga almashtirish orqali ularning intensivligiga e'tibor bergan, ularning asosiy qismi eskirgan asbob-uskunalaridan foydalanishi natijasida raqobatbardoshligi past ekanligini va bu eksportni ko'paytirish jarayonini sezilarli darajada sekinlashtirishini aytib o'tgan [7].

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan A.A. Novikova [8] ilmiy izlanishlarida tovar oqimlarini milliy hisoblar tizimining keng iqtisodiy toifalari va sinflari bo'yicha guruhlashni submilliy darajada qo'llash imkoniyatlarini iste'mol tovarlari, oraliq (xomashyo, qayta ishlangan, shuningdek, ehtiyot qismlar va aksessuarlar) va milliy amaliyotda cheklangan, xalqaro miqyosda faol foydalaniladigan investitsiya tovarlari (ishlab chiqarish vositalari)ni ko'rib chiqqan va keng iqtisodiy toifalar bo'yicha eksport tovar munosabatlarining tuzilishi va geografiyasiga asoslanib, mintaqalarning eksport salohiyatini oshkor qilishning to'liqligini, ularning jahon iqtisodiy aloqalarida ishtirok etish darajasi va xususiyatini ba-


holashga va eksport oqimlarini qo'shilgan qiymat bo'yicha farqlashga yaqinlashishga imkon beradigan baholarni oldi.

Yevropa ittifoqi bo'yicha tashqi savdo statistikasi – Yel mamlakatlari va undan tashqaridagi mamlakatlar bilan tovarlar eksporti hajmi va qiymati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Tashqi savdo dinamikasini statistik tahlil qilishda turli toifalar bo'yicha qiyosiy tahlillar olib borildi. Tashqi savdoni "eksport va import" bo'yicha va "tovarlar va xizmatlar" bo'yicha turkumlarga ajratish bilan birga ularni mamlakatlar kesimida, davrlar bo'yicha (oylik, choraklik, yarim yillik va yillik), mamlakat hududlari kesimida (tuman, viloyat va jami respublika bo'yicha) turkumlarga ajratish bilan bir qatorda ularni xalqaro qabul qilingan talablar asosida KQIT (keng qamrovli iqtisodiy toifalari) bo'yicha ham ajratib statistik tahlil o'zining ijobiy natijalarini berdi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, tashqi savdo tovarlar tashqi savdosi va xizmatlar tashqi savdosidan tashkil topgan. Ularni tovarlar eksporti, xizmatlar eksporti, tovarlar importi va xizmatlar importi kabi turlarga ham ajratish mumkin.

O'zbekistonda 2016-yilgacha eksport hajmi import hajmidan ko'proq bo'lgan, ya'ni tashqi savdoda profisit kuzatilgan. 2017-yilda xorijiy valyuta konvertasiyasining erkinlashirilishi natijasida 2017-yildan boshlab import hajmi tez sur'atlarda oshib borganini ko'rishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2010-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasida tovar va xizmatlar eksporti va importi, million AQSh dollarida

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Yuqoridagi rasmdagi ma'lumotlar tahlili jara-yonida kuzatish mumkinki, 2016-yilga kelib, import hajmi 43,0 mln. AQSh dollarga eksport hajmidan ortganini ko'rishimiz mumkin.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman, tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasi 2022-yilda res-

publikaning tashqi savdo aylanmasini 50,0 mlrd. AQSh dollariga yetishini va 2021-yilga nisbatan 7,8 mlrd. AQSh dollariga yoki 18,6 % ga oshishini ta'minladi. Ushbu natija mamlakat tarixida eng yuqori ko'rsatkich sifatida qayd etildi.


Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 19 309,1 mln. AQSh dollariga (15,9 %ga ko'paydi) va import hajmi 30 699,3 mln. AQSh dollariga (20,4 %ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida 11 390,2 mln.

MAKROIQTISODIY SIYOSAT

AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ishtirokchilari soni qariyb 31,5 mingtaga yetdi (2021-

yilga nisbatan 283 taga ko'paydi). Shundan eksportchilar soni 7,2 mingta (2021-yilga nisbatan 125 taga kamaydi)ni tashkil etgan bo'lsa, 24,3 ming (2021-yilga nisbatan 408 taga ko'paydi) importchilar tomonidan tovar va xizmatlar import qilindi (2-rasm).




2-rasm. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasi ishtirokchilari, *birlikda*

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida eng ko'p eksportchilar Toshkent shahriga to'g'ri kelgan bo'lsa (jamiga nisbatan 27,6 %), eng kam ulush Navoiy viloyatiga to'g'ri keldi (jamiga nisbatan 2,3 %). 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida eng ko'p

importchilar Toshkent shahriga to'g'ri kelgan bo'lsa (jamiga nisbatan 41,7 %), eng kam ulush Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keldi (jamiga nisbatan 1,5 %).



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori ulushga ega davlatlar, mln. AQSh doll.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

MAKROIQTISODIY SIYOSAT

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi jahonning 204 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. Tashqi savdo aylanmasining nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (18,6 %), XXRda (17,8 %), Qozog‘istonda (9,2 %), Turkiyada (6,4 %), Koreya Respublikasida (4,7 %), Qirg‘iz

Respublikasi (2,5 %) va Germaniyada (2,3 %) qayd etilgan.

Bundan tashqari, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarning mustahkamlanishi, mazkur mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat va madaniy sohalarida munosabatlarni rivojlantirish bo‘yicha katta ishlar olib borilayotgani qayd etilmoqda.

Respublikamizda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022-yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **38,4 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021-yilning mos davriga nisbatan **0,6 %** ga ko‘paygan.



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi, mln. AQSh doll.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, 19179,0 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 7 855,2 mln. AQSh dollariga yetgan bo‘lsa, import 11 323,8 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (48,4 %), Qozog‘iston (24,1 %) hamda Qirg‘iz Respublikasi (6,6 %) davlatlari bilan qayd etildi.

O‘zbekiston bilan tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlar quyidagilar kiradi: olib kirishda – tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo‘lsa, jo‘natib yuborgan

mamlakat. Olib chiqishda – tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida biz tahlil qilgan ma‘lumotlarga qo‘shimcha sifatida tumanlar kesimida mahsulotlar eksporti haqida ma‘lumotlar ko‘lamini kengayishi hududlarni kompleks rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan operativ va strategik qarorlar qabul qilinishida va ijobiy o‘zgarishlarda ahamiyati beqiyos bo‘lishiga ishonamiz. Buning natijasida hududlarni tashqi savdo jarayonlarida yanada samarali ishtiroki ta‘minlanar edi. Shu bilan birga, importini tarkibi bo‘yicha qiyosiy tahlillar o‘tkazish mamlakatimizning kelgusida importi o‘rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish va mahalliy lashtirish ishlarini yanada jadallashuviga ijobiy ta‘sir qilgan bo‘ladi.

Ayrim iqtisodchilar tomonidan eksportni rivojlantirish va importni cheklash tashqi savdo orqali iqtisodiy rivojlanishning asosiy mezonini qilib ko'rsatilsa-da, importning iqtisodiyotda ahamiyati yuqori ekanligini rad etib bo'lmaydi. Birinchidan, importni hamma mamlakat amalga oshirishi tabiiy, chunki barcha mamlakatlar eksport qilishi mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Bir mamlakatning eksporti

boshqa bir mamlakatga importi bo'ladi. Ikkinchidan, samarali importni amalga oshirish iqtisodiyot ravnaqini barqarorlashtiradi. Importi orqali yuqori eksport salohiyatiga ega davlat sifatida Yaponiyani misol qilishimiz mumkin. Shu sababli importni mufassal o'rganib, uni optimallashtirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga olib keladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2020-yil 21-yanvardari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi so'zlagan nutqidan. www.lex.uz
2. <https://kun.uz/uz/news/2020/07/03/jahon-bankining-ozbekistondagi-vakolatxonasi-yangi-rahbari-ozining-ustuvor-vazifalarini-aytib-otdi#>
3. 2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida statistikani rivojlantirishning milliy strategiyasi.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining Milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-son qarori.
5. Гаджиев Ю.А. Зарубежные теории регионального экономического роста и развития. // Экономика региона. 2009 г. № 2. 45-62 с.
6. Гужва Е.Г., Лесная М.И., Кондратьев А.В., Егоров А.Н.; – СПб.: СПбГАСУ, 2009 г. 109 – 116 с.
7. Оболенский В.П. Наращивание российского несырьевого экспорта: возможные риски. // Российский внешнеэкономический вестник. 2018 г. № 9. – С. 22-32
8. Новикова А.А. Новые международные статистические группировки для изучения товарных связей регионов. Российский внешнеэкономический вестник. 52-стр. 3 – 2020. – С. 46-48
9. <https://www.ecb.europa.eu> -Yevropa Markaziy banki rasmiy sayti.
10. www.stat.uz rasmiy veb-sayti.



ИСТЕЪМОЛ ТОВАРЛАРИ “ЯШИЛ” ЭКСПОРТИНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Муратова Шохиста Ниматуллаевна -
Божхона қўмитасининг Божхона институти
профессори, и.ф.д. (DSc)

doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss3/a4

Аннотация. Мақолада замонавий шароитда Ўзбекистон Республикасининг хорижий давлатлар, хусусан, Европа Иттифоқи билан ташқи савдо сиёсатини амалга ошириш жараёни таҳлил қилинган бўлиб, бу жараёнга саноатда экспорт ўсиш суръатларининг секинлашиши ҳамда миллий иқтисодиётнинг барқарор ўсиши ва унинг жаҳон миқёсида рақобатбардошлигини таъминлаш учун юқори технологияли товарларнинг сотиш ҳажмини ошириш зарурати сезиларли таъсир кўрсатиши тавсифланган. “Яшил” экспорт тушунчасига аниқлик киритилиб, унинг иқтисодий ва божхона жиҳатлари кўриб чиқилган, шунингдек SWOT-таҳлили асосида “яшил” экспортнинг кучли ва заиф томонлари аниқланган, уни миллий иқтисодиётда ривожлантириш имкониятлари ва истиқболлари келтирилган.

Калит сўзлар: тайёр маҳсулотлар экспорти, “яшил” экспорт, иқтисодий хавфсизлик, “яшил” технологиялар, Европа Иттифоқи, саноат товарлари экспорти, “Яшил божхона”, циркуляр иқтисодиёт, “яшил” экспортнинг SWOT-таҳлили.

ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ «ЗЕЛЕНОГО» ЭКСПОРТА ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ТОВАРОВ

Муратова Шохиста Ниматуллаевна -
Таможенный институт Таможенного комитета,
профессор кафедры, д.э.н. (DSc)

Аннотация. В статье рассматривается процесс реализации внешней торговой политики Республики Узбекистан и зарубежных стран, в частности Европейского Союза в современных условиях. Существенное влияние на данный процесс оказывает снижение темпов роста экспорта в промышленности и обозначившие необходимость повышения продаж высокотехнологичных товаров для обеспечения устойчивого роста национальной экономики и ее конкурентоспособности в мире. Уточнено понятие “зеленый” экспорт и рассмотрено в экономическом и таможенном аспектах, также на основе SWOT-анализа выявлены слабые и сильные стороны “зеленого” экспорта, определены возможности и перспективы его развития в национальной экономике.

Ключевые слова: экспорт готовой продукции, “зеленый” экспорт, экономическая безопасность, “зеленые” технологии, Европейский союз, экспорт промышленных товаров, “Зеленая таможня”, циркулярная экономика, SWOT-анализ “зеленого” экспорта.